

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib




### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




### Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 252,7** mldr so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **12,3** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 895,4** mlrd so'mni (**158,7** %ga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 357,3** mlrd so'mni (**5,3** %ga oshgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 659,0** mlrd so'mni (**2,5** %ga oshgan) tashkil etdi.

### Tarkibiy qism, ulushlarda




### Uyushmagan savdo, mlrd so'm



## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 252,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **112,3 %**ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **81,5 %** va yirik korxonalar hissasiga **18,5 %** to'g'ri keldi.

### ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **37,9 %** ko'rsatkich bilan **3 883,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,8 %** ulush bilan **187,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-oktabr



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, **8 357,3 mlrd so'mni** tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,3 %ga** ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **81,5 %ni** tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,9 %), Gurlan (99,4 %), Yangiariq (99,1 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2022- yil yanvar-oktabr
		2021- yil yanvar-oktabr

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 12,3 foizga oshib, yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida – 122,8 %, Qo'shko'pir tumanida – 118,4 %, Gurlan tumanida– 109,3 %ni tashkil qildi.


**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	10 252 690,3	112,3	1 895 419,4	158,7	8 357 270,9	105,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	3 883 172,8	122,8	1 700 375,4	175,8	2 182 797,4	99,4
Xiva	360 462,5	108,4	21 945,4	108,7	338 517,0	108,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	536 194,7	107,5	4 459,0	109,6	531 735,7	107,5
Gurlan	803 931,9	109,3	5 150,7	23,0	798 781,2	112,0
Qo'shko'pir	418 448,6	118,4	17 032,8	86,4	401 415,7	120,3
Urganch	964 942,1	103,2	29 982,1	50,7	934 960,0	106,7
Hazorasp	1 021 685,2	108,3	48 354,6	96,2	973 330,6	109,0
Tuproqqa'l'a	187 266,8	108,3	242,6	52,0	187 024,2	108,4
Xonqa	602 270,2	101,3	32 581,0	145,1	569 689,2	99,6
Xiva	255 563,2	107,4	3 691,0	81,5	251 872,2	107,9
Shovot	619 193,6	108,0	17 577,5	180,5	601 616,1	106,7
Yangiariq	372 170,2	101,5	3 252,4	143,5	368 917,9	101,3
Yangibozor	227 388,5	102,9	10 774,8	91,3	216 613,7	103,6

**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
2022- yil yanvar-oktabr

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **58,7 %**ga oshdi va **1 895,4 mlrd so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **18,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 357,3 mlrd so'mni** tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,3 %**ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,5 %ni** tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (99,9 %), Gurlan (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 18,5 %ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (43,8 %), Xiva shahri (6,1 %) va Xonqa tumanida (5,4 %) kuzatildi.



2022- yilning yanvar-oktabr oylari

holatiga ko'ra, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o'rtacha **5 296,9** ming so'mni (2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10,5 %ga** oshgan) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahri (120,8%), Qo'shko'pir (116,6 %) va Gurlan (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (26 255,4 ming so'm), Gurlan (5 261,3 ming so'm) va Hazorasp (5 111,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-oktabr

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi

**1 659,0** mlrd soʼmni tashkil etib, 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,5 %** ga oʼsdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **788,7** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 92,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **870,3** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 114,1 %) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuviga o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 788,7 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 870,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagani holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-oktabr**

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1659,0	102,5	788,7	92,2	870,3	114,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	294,7	81,7	175,7	65,0	119,0	131,8
Xiva	61,9	158,6	57,7	148,8	4,2	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	239,5	106,1	49,5	111,7	190,0	104,7
Gurlan	226,7	135,4	67,8	135,2	158,9	135,5
Qo'shko'pir	177,2	159,4	119,8	151,1	57,4	180,1
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	179,3	107,7	101,0	123,6	78,3	92,4
Tuproqqa'l'a	15,0	49,4	8,2	31,7	6,8	150,3
Xonqa	112,0	71,4	83,2	68,7	28,8	80,2
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	274,4	107,1	82,5	104,5	191,9	108,3
Yangiariq	42,3	79,9	21,7	67,9	20,5	98,3
Yangibozor	36,2	69,6	21,8	65,3	14,4	77,5



9,1  
mlrd so'm

Tuzlamalar



352,1  
mlrd so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



35,1  
mlrd so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)



104,8  
mlrd so'm

Non va non  
mahsulotlari



18,9  
mlrd so'm

17,8  
mlrd so'm



Sut va sut  
mahsulotlari



38,0  
mlrd so'm

Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

15,2  
mlrd so'm



Ziravorlar

40,7  
mlrd so'm



Tovuq go'shti




6,5  
mlrd so'm

Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**


2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **870,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qoramollar savdosi **786,2** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **76,8** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **6,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 %ni tashkil etib, 170,4 mlrd so'mga yetdi va 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 16,6 %ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	170415,7	116,6	5952,2	7,9 m.	164463,6	113,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	81302,1	117,7	5952,2		75350,0	109,1
Xiva	5965,1	107,7			5965,1	107,7
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	6302,5	108,3			6302,5	108,3
Gurlan	5092,6	123,2			5092,6	123,2
Qo'shko'pir	2473,1	110,8			2473,1	110,8
Urganch	26290,3	107,0			26290,3	110,4
Hazorasp	9276,8	116,0			9276,8	116,0
Tuproqqa'l'a	3219,9	116,2			3219,9	116,2
Xonqa	4666,2	121,0			4666,2	121,0
Xiva	4764,9	122,3			4764,9	122,3
Shovot	14215,6	132,5			14215,6	132,5
Yangiariq	3362,7	117,5			3362,7	117,5
Yangibozor	3483,8	130,0			3483,8	130,0

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 170,9 mlrd so'mni** tashkil etib, 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **15,8 %ga** oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **804,0 mlrd so'mni** (**21,6 %ga** ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **3 366,9 mlrd so'mni** (**14,5 %ga** ko'payish) tashkil etdi.


### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

**Ulgurji savdo**  
**4 170,9 mlrd so'm, 100 %**

**Yirik korxonalar**  
**804,0 mlrd so'm, 19,3 %**

**Mikrofirma va kichik korxonalar**  
**3 366,9 mlrd so'm, 80,7 %**

### Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Yangiariq tumani (119,1 m.), Hazorasp tumani (26,3 m.) va Xonqa tumani (3,3 m.) qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Yangiariq tumani (2,0 m.), Qo'shko'pir tumani (195,0) , Xiva shahri (144,3%) va Hazorasp tumanida (144,9%) kuzatildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 170 951,6	115,8	803 998,3	121,6	3 366 953,3	114,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 949 268,9	106,2	173 109,0	89,3	1 776 159,9	108,2
Xiva	156 696,0	144,3	509,1	61,4	156 186,9	144,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	104 118,9	140,0	61 628,7	138,2	42 490,2	142,6
Gurlan	205 676,2	135,7	102 003,0	123,2	103 673,3	150,7
Qo'shko'pir	35 045,8	195,0	34,5	311,9	35 011,4	194,9
Urganch	728 200,5	103,8	198 654,3	74,4	529 546,2	121,8
Hazorasp	85 038,6	144,9	13 078,4	2 633,8	71 960,2	123,7
Tuproqqa'l'a	48 748,8	132,7	41,6	134,7	48 707,2	132,7
Xonqa	343 058,2	185,3	218 909,0	328,4	124 149,3	104,8
Xiva	265 734,1	114,7	45,5	17,0	265 688,5	114,8
Shovot	68 629,2	112,8	59,6	102,2	68 569,7	112,8
Yangiariq	114 713,6	202,8	34 427,4	11 905,5	80 286,2	142,7
Yangibozor	66 022,8	113,3	1 498,5	102,1	64 524,3	113,6



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES  
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, **3 366,9** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,5 %**ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **80,7 %**ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shko'pir, Xiva va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (40,8 %) va Gurlan tumaniga (50,4 %) to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar
	2022- yil yanvar-oktabr
	2021- yil yanvar-oktabr

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09**